



O'ZBEK TILI IZOHLI LUG'ATIDA'GI RANG NOMLARINING
IJTIMOIY QATLAMDAKI ISTE'MOLI

Murtazayev G'olibjon

*Qarshi davlat universiteti Lingvistika : o'zbek tili yo'nalishi
mustaqil izlanuvchi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi rang nomlari, ularning ijtimoiy qatlam vakillari orasida qanday holatlarda qo'llanishi, rang nomlari semasining qay darajada mos kelishi va bog'liqlilari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: qizil, sariq, ko'k yo'tal, sarg'ayma, oqqon, qoradori, ko'k choy, oqpadar, yuzi qora, qora qit'a, qizil qor.

Tabiatning qay bir tomoniga qaramang ranglarga ko'zingiz tushadi. Ranglarsiz hayotimizni tassavvur ham qila olmaymiz. Darhaqiqat, bizni qurshab turgan olamning asosiy jilosi ham aynan shu ranglar bilan desak mubolag'a bo'lmaydi. Har bir rang bir olam ma'no anglatadi. Nima uchun tabiat yashil rangda yaratilgan? Uning rangi sariq yoki qizil rangda bo'lganda qanday holatga tushgan bo'lardik? Ranglar jamiyatimiz a'zolari orasida turli qatlamlarda turli ma'nolarda talqin qilinadi. Xalq tilining o'ziga xosligi, undagi sohalarning keng qamrovliligi tilda namoyon bo'ladi. Lisonidagi mavjud imkoniyatlar barcha uchun barobarligi koloronimlardan foydalanishda ham namoyon bo'ladi. Masalan, tibbiyotda oqqon, sariq kasal (gepatit), ko'k yo'tal kabi kasallik nomlari mavjud. Oqqon kasalligi (leykoz) xalq tilida ko'p uchraydigan kasallikdan biri hisoblanib, qon tarkibidagi qizil qon tanachalari kamayib oq qon tanachalarining ko'payishi oqibatida rangi qizillikdan rangsiz holatga kirishidir. Bunda qizil rangga zid sifatida oq rang keltirilishi bu dardning aynan Oqqon deb nomlanishiga olib kelgan. Oq rangning aynan ilmiy ta'rifi quyidagicha: Ko'zga kiruvchi yurug'lik ko'zning barcha uch turdagi rangga sezgir konus hujayralarini taxminan teng miqdorda qo'zg'atganda, yorug'lik insonning ko'rish tizimi tomonidan oq rang sifatida qabul qilinadi¹. Yoki sariq kasal, sarg'ayma (gepatit)ni oladigan bo'lsak, inson jigarida hosil bo'ladiga o'tkir yuqumli kasallik hisoblanib, uning ta'sirida qon tarkibi o'zgarib bemor yuz va ko'zlarining sariq tusga kirishi kuzatiladi. Mana shu holatlardan kelib chiqib bu kasallik ham aynan shu tarzda nomlangan.

Rang nomi bilan bog'liq yana bir keng tarqalgan kasallik bu Ko'k yo'tal'dir. Ko'k yo'tal- o'tkir antroponoz, havo-tomchi yo'li bilan yuquvchi bacterial infeksiyadir². Bakterialar ko'p miqdorda toksinlar ajratib chiqaradi va nafas yo'llarining shilliq qavatida ko'paydi. Aynan ana shu shilliq qavatdan ajralgan suyuqlik ko'k rangda ya'ni, yashilimon tusda bo'lganidan bu nom berilgan bo'lsa ajab emas.

Ayni vaqtda jamiyatning faol qatlamlarida Oqpadar iborasi ham keng qo'llaniladi. Bu iboraning aynan sinonimi Lanati hisoblanadi. Oqpadar-juda qattiq gunohi, nojo'ya





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

xatti-harakati uchun otasi(ota-onasi) oqilgan, la`natlagan, yuz o`qirgan farzand. Oqqadar bola endi bu uyda turishga haqsiz.³ Bundan tashqari xalqimiz sevib iste`mol qilachigan ichimlik choy ham ikki xil rang bilan ajratiladi. Ko`k va qora choy ham ma`lum bir ma`noviy xarakterda shu nomlar bilan aytiladi. Chunki har ikki choy turi ham suyuqlik bo`lmagan holda xuddi o`zlari nomlanadigan holda ajratiladi. Ko`k choy iborasidagi ko`k aynan sabza, ya`ni, yashil ma`nosini beradi. Bunda o`sayotgan o`simlik rangining keyinchalik yarim-tayyor mahsulot va tayyor mahsulot holiga kelganda ham nom jihatidan saqlanishiga guvoh bo`lamiz. Qora choy ham qayta ishlanganda keyin qora tusga kirishi, lekin qaynatilgan suvga solib tayyorlanganda qizg`ish rangga aylanishi uning dastlabki holati bilan bog`liq.

O`zbek tilidagi bir qancha tasyiriy ifodalada ham ranglar bilan bog`liq jihatlar yo`qemas. Masalan, qora qit`a ifodasi undagi tub aholi irqiy kelib chiqishi bilan bog`lanadi. Insonlarning mongoloid, yevropoid, avstraloid va negiroid irqi bo`lib, ularning irsiy belgilar masalan, yuz, teri, soch rangi, yuz va bosh qutisi shakli orqali farqlanadi. Negiroid irqi terisining rangi qora bo`lganligi uchun ham Afrika qit`asi Qora qit`a nomi bilan mashhur. Bundan tashqari qora oltin, oq oltin, zangori ekran, zangori olov, yashil vodiy kabi parafrazlarda esa aynan shu rang semasining ustunligi sezilib turadi.

Ranglar bilan bo`g`liq holatlar xalq og`zaki ijodining maqol, tez aytish, topishmoq kabi janrlarda ham keng qo`llanilishi hech kimga sir emas. Badiiy adabiyotda ramzlar sifatida ranglardan foydalanish barcha asarlar jilosini orttishi ham ranglar inson hayotida katta o`rin tutishidan darak beradi.

Yuqoridagi tahlillarimizdan xulosalar chiqaradigan bo`lsak, jamiyatning qaysi jabhasini olmaylik koloronimlar har bir sohada alohida ahamiyat kasb etadi. Ranglar semasining keng ko`lamidan to`g`ri foydanilsa o`zbek tili boyligini yanada boyitishda qo`l kelishi shubhasiz. Ranglar jilosini yanada keng yoritish uchun ularni lingvistik va lingvopoetik jihatdan o`rganish foydadan xoli bo`lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Wyszecki & Stiles. Color Science, Second-506-bet
2. O`zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Said Ahmad Ufq

